

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”**

Международная научно-практическая конференция

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”**

International Scientific and Practical Conference

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

- | | |
|--------------------------|--|
| K.A.Samiyev | – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f.m.f.d., professor |
| D.Sh.Yavmutov | – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor |
| O'U. Rashidov | – Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor |
| A.T.Jurayev | – Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent |
| R.G'. Jumayev | – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor |
| O.S.Qahhorov | – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor |
| G.T. Zaripov | – Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor |
| N.I. Gaybullayeva | – BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor |
| N.Z. Sayfullayeva | – Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent |
| M.Sh. Shirinova | – Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent |
| A.A. Amonov | – Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent |
| Z.S. Nurov | – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent |
| B.I. Adizov | – Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent |
| M.Z. Husenov | – Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent |
| D.Z. Rajabov | – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor, |
| A.H. Hamrayev | – BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori |
| O.O. Jalolov | – Matbuot kotibi |

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

- | | |
|--------------------------|---|
| N.Z. Sayfullayeva | – Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent |
| M.Sh. Shirinova | – Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya vo'nalishlari) |

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston. 2000.- B.43.
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-sonli qarori. (Musiqi madaniyati fanidan Davlat ta'lim standarti). 2017 y. 6-aprel.
4. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. Musiqa madaniyati. -Toshkent. 2021
5. Rajabov Tuxtasin Ibodovich. Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class. <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277ECB> European Chemical Bulletin. ISSN 2063-5346 Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397.
6. Rajabov, To'xtasin. "UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O 'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." IJODKOR O 'QITUVCHI 2.21 (2022): 21-31.

“BUXORO SHASHMAQOMI” YOSH AVLODNI MA’NAVİY- MA’RIFIY RIVOJLANTIRISHDA MUHIM OMIL SIFATIDA

MUSTAFAYEV BAXTIYOR IBRAGIMOVICH,
*BUX.DU Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrası professori*

Kalit so'zlar: “Buxoro Shashmaqomi”, kasbiy musiqa ta’limi, musiqa maktabi, uslub, musiqiy-ma’rifiy faoliyat, nota yozuvi, “Nasr va Mushkulot”, maqom sho’balari, hofiz-sozandalar, professional musiqa.

Ключевые слова: “Бухарский Шашмаком”, профессиональное музыкальное образование, музыкальная школа, стиль, музыкально-просветительная деятельность, “Наср и Мушкулот”, части макома, певцы-музыканты, профессиональная музыка.

Key words: Bukharian “Shashmakom”, education of professional music, music school, style, musical- education activity, “Nasr and mushkulot”, parts of makoms, singer- musicians, professional music.

Ushbu maqolada “Buxoro Shashmaqomi” yosh avlodni ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qilishi, maqom va maqom yo’lidagi asarlarni ta’lim tizimiga kiritish, yoshlar tarbiyasida maqom san’atidan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

В данной статье рассматривается роль “Бухарского Шашмакома” как важного фактора повышения духовно-образовательного уровня молодого поколения, вопросы использования произведений макомов в системе образования.

This article examines the role of the national art of maqom as an important factor in raising the spiritual and educational level of the younger generation, and the use of maqom works in the education system.

Hozirgi musiqa ta’lim-tarbiyasi tizimi o’zida Shashmaqomni uzok o’tmishdan san’at sifatida o’rganilib, tadqiq etilib kelinayotganligi, musiqa maktablari an’analari, ilg’or amaliy tajribalar maxsuli sifatida takomillashayotganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Mustaqillik yillarida o’zbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targ’ib etish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va e’tibor tuyg’ularini kamol toptirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” gi PQ-3391-sonli Qarorda “Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o’zlikni anglash tuyg’usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” vazifasi qo’yildi [1].

Qarorga binoan, Shaxrisabz shahrida 2018 yilning 6-10-sentabr kunlari o’tkazilgan Xalqaro maqom san’ati anjumani katta ahamiyatga ega bo’ldi. Prezidentimizning Xalqaro Maqom san’ati anjumani ochilish marosimida so’zlagan nutqida: “Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur” ekanligi alohida ta’kidlanib, “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o’rganmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o’rganishimiz kerak”. “Agar biz san’atni, madaniyatni ko’tarmoqchi bo’lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini ko’tarishimiz kerak” ligi alohida e’tirof etildi [2].

Har bir xalqning o’zi uchun e’zozli, qimmatli bo’lgan ma’naviy boyliklari, musiqiy qadriyatlari mavjud. Bular asrlar davomida avlod-dan-avlodga o’tib kelgan, hozirgi kunda ham o’zining ahamiyati va mohiyati, qadrini yo’qotmagan, shu xalqning iftixor manbayiga aylangan durdonalaridir. Milliy maqom

asarlari kishilar ma'naviy- ma'rifiy va axloqiy olamining shakllanishi va rivojlanishida, ularning ma'naviyatini kamol topishida bebaho badiiy qimmatga ega bo'lgan qadriyatlardan biridir. Bu qadriyat inson faoliyati, tafakkurining yuksak cho'qqisi hamda badiiy ijodkorligining mahsulidir.

Tarixiy ma'naviy meros sanalmish "Qobusnoma" asarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shogirdlarga musiqa ta'lim-tarbiyasi, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida qimmatli mulohazalar bayon etilgan. Jumladan, asarda "... Agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hammavaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirinso'z bo'l, o'z ishingga mashg'ul bo'l. Qo'polso'z, qovog'i soliq bo'lmagil, hamma vaqt og'ir yo'l (maqom) larni chalaverma va hamma vaqt yengil kuy larni ham chalaverma, negaki odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas..." [3, 114-115].

Shashmaqom XVIII asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda topganligi uchun "Buxoro Shashmakomi", deb yuritiladi. U kasbiy-ustozona musiqa namunasi bo'lib, yirik hajmga ega, murakkab tuzilishli, umumiy soni 250 dan ziyod ashula, cholg'u asarlarni o'z ichiga olgan tizimli musiqiy majmuadir.

Mang'it amirlari davrida Buxoroda ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morchilik, xattotlik, hunarmandchilikning rivojlanishida sulola vakillarining ibratli ishlari muhim ahamiyat kasb etgan.

Musiqashunos olim Otanazar Matyoqubov o'zining "Maqomot" kitobida Amir Muzaffarxon, Amir Abdulahadxon va Amir Olimxonlarning sozparvarligi va ularning musiqa san'atiga ixlosi baland bo'lganligini ta'kidlab, Amir Muzaffarxonning malakali maqomxon, hofiz va sozandalar tayyorlash maqsadida Buxoroda maxsus Shashmaqom maktabini tashkil etganligini aytib o'tadi [4, 58].

Professor Fayzulla To'rayevning yozishicha; "Said Olimxon ham ota-bobolari singari soz san'atiga, hofizu mutriblarning iste'dod va qobiliyatlariga befarq bo'lmagan. U o'tmish ajdodlari kabi o'z saroyida maqomxon ustozlarni to'plab, Shashmaqomni mukammallashtirish va uni asrab-avaylab, keyingi avlod vakillariga yetkazishga alohida e'tibor bergan [5,17].

Shogird "Shashmaqom"ning cholg'u va aytim yo'llarini puxta o'zlashtirishi uchun turkumning tuzilishi, tarkibi, usul xususiyatlarini ham bilishi muhim bo'lgan.

Maqomlarning cholg'u bo'limlarida bir xil nom bilan ataladigan cholg'u qismlari bo'lib, ularning ohanglari turlicha bo'lsa-da, doyra usullari bir xildir. Ular "Tasnif", "Tarje", "Gardun", "Muxammas" va "Saql" mashhurdir.

Shashmaqomning ashula bo'limi sho'balari ham bastakorlik san'ati an'analari mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Shashmaqomning deyarli hamma cholg'u yo'llari peshrav ohanglaridan tuzilgan. Peshrav yo'llarini tinglab ko'rilsa, pastga pog'onama - pog'ona harakat qilayotgan peshrav tuzilmalarining ichida ohang yuqoriga harakat qilishini va kuyni tashkil etadigan xonalar yuzaga kelishini ajratib olish mumkin.

"Naqsh" - bu atama bezak ma'nosida ishlatiladi va shashmaqomning nasr deyilgan sho'balariga moslanib bastalanadi. Naqshlar yengilroq ashula bo'lib, murakkab va vazminroq ijro etiladigan nasr sho'balariga ulanib aytiladi. Naqshlar taronalardan kuy tuzilishi jihatdan boshqa ashula yo'llaridan ajralib turadi. Endi taronalar shakliga kelsak, o'tmishda ular to'rtlik, ya'ni ruboyi she'rlarni va shu she'rlarga mos kichik shakldagi ashulalarni ifodalagan.

"Sarahbor" - "Sar" - tojikcha bosh, "axbor" - arabcha xabar so'zining ko'pligi, ya'ni ashula turkumlari tuzilishidan darak beruvchi bosh ashula yo'li, qisqasi, ashula bo'limining bosh mavzusi ma'nosidir. Olti maqomning har birida ular maqomlar nomi bilan qo'shib, sarahbori Buzruk, saraxbori Rost, saraxbori Navo, saraxbori Dugoh, saraxbori Segoh va sarahbori Iroq deb nomlanadi.

"Talqin" - nomi sho'balar Iroqdan tashqari hamma maqomlarda uchraydi va talqini Uzzol, talqini Ushshoq, talqini Bayot, talqini Chorgoh, talqini Segoh, deb yuritiladi. Talqin yo'llari Uzzol, Ushshoq, Bayot, Chorgoh, Segoh, Nasr va Ufar yo'llari bilan hamohang va bu sho'ba qismlari bir-birining ritmik variantlaridir. Ularning taronalari esa, Saraxborlardagi kabi vazifani bajaradi.

"Nasr" - ko'mak, zafar ma'nosida ular Shashmaqomda o'n to'rttadir. Ular: Buzrukda - Nasrullohi, nasri Uzzol, Rostda - nasri Ushshoq, Navro'zi sabo, Navoda - nasri bayot, Orazi navo, Husayniy Dugoh, Segohda - nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi ajam, Iroqda- Muxayyari Iroq bo'lib, Ular 6/4 takt o'lchovidagi doira usulida ijro etiladi.

"Ufar" - maqomlarning yakunlovchi qismi bo'lib, sho'xroq doira usulida ijro etiladi. Har bir maqomning sho'balari va ularning taronalari turkum tarzida ijro qilinib, Ufar bilan tamomlanadi va oxiri suporish (ya'ni topshirish ma'nosida) bilan tamomlanadi. Bu suporishlar sarahborlarning ashula boshidagi jumalaridir. Suporish turkumni sarahborga uzatadi va u bilan yakunlanadi.

Maqom tarixiga oid maxsus adabiyotlarda bitilishicha: "Maqom va maqom yo'lidagi asarlarni ta'lim tizimiga kiritish masalasi, ayniqsa, jadidlarning diqqat markazida bo'lgan. Musiqiy - ma'rifiy faoliyatning namunasi sifatida Abdurauf Fitrat 1921-yil 10-avgustda Buxoro hukumati farmoni bilan 1-

Sharq musiqa maktabini tashkil etdi. Bu maktabda bolalarning musiqiy ta'limi saboqlari og'zaki musiqa-pedagogikasiga mansub-an'anaviy uslubda olib borilar edi. Musiqa maktabida Ota Jalol, Ota G'iyos, Domla Xalim Ibodov, Usto Shodi, Xoji Abduraxmon kabi ustozlar maqom va maqom yo'lidagi kuy-ashulalarni, ularning usullarini yosh talabalarga o'rgatishar edi. Mashhur xofiz-sozandalar maktabda murabbiy sifatida faoliyat ko'rsatib, o'zlarining musiqiy-ijrochilik faoliyatlarini pedagogik ishlari bilan uyg'un holda amalga oshirishgan. Shu tariqa maqom ijrochiligi, milliy musiqamiz targ'iboti, shogirdlar tayyorlash vazifalari, ustozu-shogird an'analari davom etdi. Sh. Soxibov, F. Shaxobov, M. Ashrafiy, M. Burxonov singari bo'lgusi katta san'atkorlar bu yerda talim olishib, kelajakda ustoz - sanatkor darajasiga erishdilar.

"Ustoz-shogird" an'analari qadriyat sifatida-yoshlarda hofiz va sozandachilik kasbiy mahoratini tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, izlanish, ijod qilish, muhimi har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyat kasb etgan. Yana bir jihati shundaki, "Ustoz-shogird" likda ta'lim oluvchining o'z qobiliyat, imkoniyatlariga ishonchi, irodaviy sifatleri shakllanishi, qolaversa shogirdning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo'lgan.

Kasbiy musiqa ta'limi usuliyatida shogirdlikka qabul qilishning o'ziga xos qoida-tartiblari bo'lgan. Jumladan, balog'atga yetmagan o'smirlar shogirdlikka qabul kilishmagan, shogirdlarning hatti-harakati, yurish-turishi, axloq-odobi ustozlari tomonidan nazorat qilib borilgan. Binobarin, xalq orasida Shashmaqom musiqasini targ'ibot etish, undan saboq berish mas'uliyati nihoyatda katta bo'lgan. Levicha xofizga - Ota Jalol, Shohnazar Sohibovga - Levi Boboxonov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Ma'rufjon Toshpo'latov, Tolibjon Sodiqovlarga - Domla Halim Ibodov ustozlik qilishgan. Shu tariqa ustoz-shogirdlik an'analari keyingi avlod vakillari tomonidan davom ettirilib rivojlantirildi.

Buxoro maqom maktabida shogirdlarning imkoniyat va salohiyatlariga qarab Shashmaqomning "Nasr" va "Mushkulot" qismlari chuqur o'rgatilar edi. Shu bois, o'sha davrlarda aksariyat shogirdlar makomlarning alohida shu'balari mohir ijrochisiga aylangan edilar. Jumladan, Usta Shodi Shashmakomni ustozlari Ota Jaloldan o'rganib doira va nay sozlarida ijro etgani, shuningdek xalq orasida maqomlarning murakkab sho'balardan - Saraxborlarni, ayniqsa zo'r mahorat bilan kuylashi bilan mashhur edi. Domla Halimni esa xalq asosan maqom Savtlarini mohir ijrochisi sifatida e'zozlagan.

Maqomlar asosan og'zaki, an'anaviy tarzda, ustozdan shogirdga o'tib, yashab keldi. Shogirdlar o'z ustozlari ijrosidagi maqom namunalarini xotiralariga saklab, amaliy ijrolar jarayonida o'rganib kelganlar, ularni ijodiy o'zlashtirganlar.

Albatta, o'z davrida Sharq olimlari tomonidan o'ziga xos musiqiy nota yozuvi yo'llari ixtiro etilgan, biroq, ular amaliyotda keng joriy bo'lmaganligi bois, XX asr boshlarida maqomlarni besh chiziqli nota tizimi asosida yozib olish ishlari muhim ahamiyat kasb etdi va bu ish bir necha bor amalga oshirildi.

1924-yilda Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'anilar etnograf Viktor Uspenskiy bilan hamkorlikda "Buxoro Shashmaqomi" ni ilk bor notaga olishdi. Akademik Yunus Rajabiy ulkan ma'naviy xazina bo'lmish "Shashmaqom" turkumini va "Farg'ona - Toshkent" maqom yo'llarini nota yozuvlariga muhrlab, XX - asrning 50- yillari va 60-70- yillari davomida bosmadan chiqardi.

Buxoro maktabi an'alarini davom ettirgan san'atkorlar Boboqul Fayzullayev, Shonazar Sohibov, Fazliddin Shaxobovlar ham hamkorlikda 1950-yilda "Buxoro Shashmaqomi" ning mukammal nusxasini notaga ko'chirishga muvassar bo'lishdi. "Buxoro Shashmakomi" ning nota yozuviga olinishi yurtimiz musika madaniyati tarixida muhim voqea sifatida qayd etilib, xalkimizni o'lmas ma'naviy boyligiga aylandi va kelajak avlod o'rganishi, o'zlashtirishi va ustoz-shogirdlik an'alarini yanada rivojlantirish uchun meros bo'lib qoldi.

Buxorolik taniqli xofiz, sozandalar shogird tayyorlash barobarida o'z farzandlarining milliy merosni o'zlashtirishlariga, musiqiy ta'lim - tarbiyasiga ham jonbozlik ko'rsatishgan. Gabriel xofiz o'g'li - Soson Benyaminovga, ustod Domla Xalim o'g'li Olim Xalimovga, Shohnazar Sohibov o'g'li - Telman Sohibovga ustozlik qilishgan.

Xalq kuylari va "Shashmaqom" shu'balari ustozdan-shogirdga ogzaki tarzda o'rgatilib kelinganligi bois har bir xofiz maqomlarni el orasida kengroq yoyish, ularga yanada umrboqiylik bag'ishlash maqsadida shogirdlar tayyorlash ishi bilan shug'ullangan. Ustozlar kasbiy musiqa ta'limi usuliyoti maktabi mansub bo'lajak sozanda-xofizlarga saboq berishda san'atkor odobi me'yorlarini, mezonlarini singdirishda qimmatli tavsiyalardan foydalanishgan. Sozanda Haydar Musayev o'zining shogirdlik davrlarini eslab, shunday aytgan edi : "Men musiqa maktabida Levichadan ta'lim olishda ko'pincha uning uyida bo'lar edim. Onam axtarib kelganlarida meni doim shu yerdan topardi. Levicha shogirdlarining malakasini oshirmok uchun ularni bazmlarga olib borardi. U tanbur chertib, biz unga jo'r bo'lardik" [6,75-76].

Xalq musiqasi ta'lim-tarbiya tizimidan asta-sekin olib tashlangan o'tgan asr davrida ham musiqa ijrochiligidagi ustoz-shogirdlik an'anasi tor doirada bo'lsa-da davom ettirildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar qatori musiqa madaniyatida ham juda katta o'zgarishlar yuz berdi. O'rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbek xalqi madaniyati va ma'naviyati tarixini uning tarkibiy qismi bo'lmish musiqa madaniyati tarixini o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi. Endilikda "Ustoz-shogird" an'anasi yoshlarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, musiqiy-pedagogik va badiiy ijrochilik jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogirdidagi musiqiy iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Milliy musiqiy tarbiya xalq nomi uning tarixi, qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq. O'tmish musiqiy-pedagogik meros va an'analar yoshlar tarbiyasi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim muassasalarida milliy musiqiy tarbiyani samarali tashkil etishda "Ustoz-shogird" an'analari muhim sanaladi.

Respublikamizda milliy musiqa, maqom san'ati ilmi va amaliyotini rivojlantirish maqsadida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi muassasalarining o'quv rejasiga "An'anaviy xonandalik va sozandalik" fanlarining kiritilganligi ustoz-shogird qadriyatlarini zamonaviy sharoitda yanada takomillashtirishga keng imkoniyatlar berdi.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy maqom san'ati asoslarini o'rgatish zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Musiqa madaniyati ta'limi dasturida bunga alohida e'tibor qaratilgan. Musika madaniyati fanidan 6-sinf darsligida "Shashmaqom-mumtoz musiqamiz asosi" mavzuida tinglash uchun "Tasnifi Buzruk" kuyi tavsiya etiladi. Yettinchi sinf darsligida 2-chorak 1-mavzu-Maqom tushunchasi. Shashmaqom, 2-mavzu - Shashmaqomning cholg'u (mushkulot) va ashula (nasr) bo'limi berilgan bo'lib, musiqa tinglashda "Nasrulloiy" maqom aytim yo'lini tinglash tavsiya etiladi. Musiqa savodxonligida "Ota Jalol Nosirov" hayoti va ijodi o'rganiladi [7, 39].

Xullas, qadimiy o'zbek milliy musiqa madaniyati gultoji bo'lmish "Buxoro Shashmaqomi" san'ati va ilmi bilan asrlar davomida maxsus shug'ullanuvchi kasbiy musiqa maktablari shakllangan, rivojlangan hamda takomillashib kelgan. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ushbu babaho xazinadan yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda muhim omil sifatida foydalanish hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda "O'zbekiston milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ - 3391-sonli qarori // "Xalq so'zi". 2017. - 18-noyabr.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro maqom san'ati anjumani" ning ochilish marosimidagi nutqi". // "Xalq so'zi". 2018 y. - 7-sentabr.
3. Qobusnoma. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1967. - B.114-115.
4. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent "Musiqa" nashriyoti. 2004. - B. 58.
5. To'rayev F. Mutribot qalbidan uchgan navolar (Saylanma). Toshkent "Navro'z" nashriyoti. 2018. - B.17.
6. Xaimov Y. Levicha xofiz. Toshkent. 1975. - B. 75-76.
7. Musiqa madaniyati fani o'quv dasturi (1-7 sinflar) Toshkent. 2017. - B.39.
8. Rajabov Tuxtasin Ibodovich. Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class. <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277ECB> European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397.
- 9 Rajabov, To'xtasin. "UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O 'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA." IJODKOR O'QITUVCHI 2.21 (2022): 21-31.

BUXORO YOSHLARINING INTELLEKTUAL VA KREATIV SALOHIYATI: KELAJAKNI BUNYOD ETISHDAGI O'RINLARI

Xaydarova Lobar Xalimovna

Buxoro davlat universiteti

Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i

Аннотация. Mazkur ilmiy maqolada Buxoro viloyati yoshlarining intellektual va kreativ salohiyatini rivojlantirish yo'llari, mavjud imkoniyatlar, ularning hudud va mamlakat kelajagini bunyod etishdagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashi, innovatsion

MUNDARIJA

Muallif	Mavzu	Bet
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI 95 YILLIK TARIXI VA ISTIQBOLLARI		
O.X. Xamidov	Soʻz boshi	3
B.K. Zaripov	Universitet – Buxoro gavhari	5
K.A. Sharipov	Bir asrlik maʼrifat yoʻli	6
S.M. Buzrukxonov	95 yillik tarix – talaba va taʼlim uchun zamonaviy sharoitlar	7
O.M. Maxkamov	95 yillik taraqqiyot sari	8
Sh.X. Daliyev	Buxoro davlat universiteti: 95 yillik tarix, zamonaviy taʼlim	9
A.H. Naimov	Ilm-fan va taʼlim yoʻlida 95 yil	11
B.A. Adilov	Yoshlar siyosati va universitet hayoti	11
H.T. Artikova	Buxoro davlat universiteti – 95 yillik taraqqiyot yoʻlida: xotin-qizlar faolligi va ilm-fandagi oʻrni	13
K.A. Samiyev	Tabarruk ilm maskani	14
R.Gʻ. Jumayev	Oʻquv jarayonidagi islohotlar va yangilanishlar	16
A.T. Joʻrayev	95 yillik xalqaro hamkorlik ufqlarida	17
D.Sh. Yavmutov	Buxoro davlat universiteti - yoshlar bilan ishlashda, barkamol avlodni tarbiyalashda namuna va tayanch maskani	18
Oʻ.U. Rashidov	Moliyaviy barqarorlik va moddiy-texnik taʼminot	20
O.S. Qahhorov	Ilm-fanda 95 yil: Buxoro davlat universiteti tajribasi	21
R.R. Sayfullayeva	Xotira va Ibrat	23
S.Q. Qahhorov	Universitetning 95 yillik tarixi – oʻzgarishlar, yangilanishlar, yutuq va tajribalar yoʻli	25
1-SHOʻBA. OLIY TAʼLIMDA INNOVATSIYALAR: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA IJODIY YONDASHUVLAR		
A.T. Joʻrayev	Oliy taʼlimni xalqarolashtirishda ESG tamoyillarini qoʻllash	26
U.A. Fayziyeva	Oliy taʼlim muassasalarining rivojlanishida boshqarish tizimidagi oʻzgarishlarning oʻziga xos xususiyatlari	29
O.X. Xamidov, O.S. Qahhorov	Buxoro davlat universitetining ilmiy-innovatsion rivojlanish istiqbollari	34
Ш.Ш. Олимов., Н.З. Сайфуллаева	Инновационные технологии развития экономического мышления у студентов вуза	41
U.M. Xalikova	Oliy taʼlim muassasalarida talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatini tashkil etish mexanizmlari	44
A.A. Akramov	Raqamli simulyatsiyalar asosida iqtisodiy jarayonlarni oʻqitish kompetentligini oshirish	50
V.A. Abduhakimova	Xorijiy tillarni oʻrganishda raqamli texnologiyalar va ijodiy yondashuvlar	55
A.A. Anorboyev	Boʻlajak zaxiradagi ofitserlarni harbiy tayyorgarlik fanini oʻqitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ulardan samarali foydalanish yoʻllari	57
M.K. Abdusobirova	Oliy taʼlimda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda bulutli texnologiyalarning oʻrni	59
M. F. Atayeva, X.Gʻ. Rahmonova	Raqamli texnologiyalar vositasida fizikadan laboratoriya mashgʻulotlarini tashkil etish va oʻtkazish metodikasi	63
M.F. Atayeva, S.Z. Joʻraqulov	Fizika fanining hayotiy mohiyati: formulalarsiz tushunishga oid yondashuvlar	66
Sh.U. Azizova	Digital infidelity prevention strategies: psychological, moral and social approaches	69
A.A. Akbarova	Oliy taʼlimda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda multimodal oʻqitish yondashuvining ijodiy integratsiyasi	70
B.N. Gapparov	Raqamlashtirish jarayonida oliy taʼlim: innovatsiyalar va ijodiy yondashuvlar	72
Z.A. Isaxanov, M.M. Maxmudov,	Arduino asosida elektron va ion pushka chiqish signallarini oʻlchash uchun innovatsion koʻp funktsiyali detektor tizimini yaratish	76

B.B. Gaibnazarov, A.E. Ergashev		
X.A. Fayziyeva	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy usullari: mexanika fanida amaliy tadqiqot	81
J.U. Hamroyev	Yoshlarning emotsional intellektini baholashda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	83
U.Sh. Ibodova	Hamshiralik ta'limida kreativlikni rivojlantirishda "Design thinking" yondashuvining qo'llanilishi	85
D.T. Ismailov	Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining milliy tarbiyasini takomillashtirishda innovatsion yondashuv	87
F.K. Ismoilova	Iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorining integratsiyasi	89
N.F. Jumaniyozova	Oliy ta'limda matn ustida ishlash metodikasi fanidan badiiy matn ustida ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli platformalarning samaradorligi	91
R.X. Kadirov	Sport ta'limida nazariya, metodologiya va amaliyotni integratsiya qilish orqali talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	96
M.V. Xalimova, S.M. Kozimov	Talabalarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli vositalarning o'rni	101
Z.B. Kadirova, K.M. Makhmudova	A new stage of digital governance in higher education: an analytical study of the hemis system	104
R.X. Kadirov, Z.T. Axmedova	Mini-gandbol amaliyoti orqali boshlang'ich maktab o'quvchilarining harakat faoliyatini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar	107
A.P. Kurmanov	Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tadbirkorlikka tayyorlash: nazariy-metodologik asoslari va pedagogik amaliyotlari	112
B.T. Kuchkarov	Oliy harbiy ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va roli	114
B.E. Madaliyev	Bo'lajak o'qituvchilarda axborot-analitik kompetentlikni rivojlantirishda sun'iy intellektning asoslari	116
H.M. Maxmudova	Oliy ta'limda innovatsiyalar: yuridik ta'limni rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning ijobiy tomonlari	121
A.T. Majitova	Zamonaviy o'zbek tilida o'zlashgan so'zlarning lingvistik tadqiqi	124
B.Sh. Mamatqulov	Sanoat uchun raqamli kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlash: horijiy davlatlar tajribasi va O'zbekiston istiqbollari	126
A.M. Nazarov	Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning talaba psixologiyasiga ta'siri hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari	128
F.F. Norova	Talabalarda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda gamifikatsiya va mobil texnologiyalar integratsiyasi	131
Z. Nurov, Z. Abdullaev	Improving the quality assurance system at Bukhara State University	134
N.Sh. Omonova	Bo'lajak tarbiyachilarning refleksiv fikrlashini sun'iy intellekt asosida qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari	137
N.T. Orinbetov, M.H. Ismailova	Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari	139
Sh. Sh. Ostanov	Oliy ta'limda talabalarga sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologik ta'siri	143
M.K. Qayumova	Oliy ta'lim muassasalarida botanika fanidan ildiz mavzusini o'qitishda integratsion topshiriqlardan foydalanishning o'rni	146
S.Sh. Rajabova	From call to mall: empowering autonomous language learning through the next generation of digital technologies	149
X.H. Rajabova	Raqamli texnologiyalar asosida kollaborativ ko'nikmani dars jarayonida shakllantirish	151
M.N. Rasulova	Raqamli texnologiyalar asosida oliy ta'lim sifatini oshirishning nazariy va amaliy asoslari	153

I. Raxmatullaev, M.M. Axadjonov, Yakubov	Zamonaviy ta'lim texnologiyasida mustaqil ishlardan samarali foydalanish	157
D.N. Razzoqov	Oliy ta'limda innovatsiyalar: raqamli texnologiyalar va ijodiy yondashuvlar (Texnologiya fanini o'qitish misolida)	159
F.F. Raximova	Raqamli ta'lim muhitida deontologik kompetentlikni rivojlantirish zaruriyati	161
Sh.Sh. Rustamov	Oliy ta'limda raqamli pedagogik innovatsiyalar orqali talabalarda psixologik barqarorlik va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish	166
Sh.M. Salixov	Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik tizimi	169
Sh.X. Samatova	Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv yondashuv asosida tizimli fikrlashni shakllantirishning metodik yondashuvlari	172
S.T. Tajibaeva	Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rni	176
S.R. Tojiboyeva	Innovations in higher education: applying digital technologies and creative approaches to promote health and hygiene in medical institutes	178
Ch.A. Tashpulatova	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ochiq axborot ta'lim muhitlaridan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari	181
Q.Sh. Tursunov	Olxo'ri navlarining o'suv davri davomiyligi	183
S.A. Usmonov	Bo'lajak tibbiyot muhandislarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda fizikadan amaliy mashg'ulotlarini fanlararo integratsiyalab o'qitish	185
Sh.Sh. Xakimov	Oliy ta'limda innovatsiyalar: raqamli texnologiyalar va ijodiy yondashuvlar	191
M.D. Xamroyeva	Raqamli ta'lim texnologiyalarining oliy ta'lim tashkilotlarida o'qitish jarayonida qo'llanilishi	193
G.A. G'oziyeva	Oliy ta'limda ijodiy yondashuvlar va raqamli texnologiyalar	198
Sh.K. G'afurova	Oliy ta'lim tizimining innovatsion transformatsiyasi va barqaror rivojlanish maqsadlariga integratsiyasi	199
M.M. Xoliqova	Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	202
M.A. Xudoyberdiyeva	O'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik yondashuvlarni aniqlashning o'ziga xos yo'llari	204
F.X. Xudoynazarov	O'zbekiston oliy ta'limida innovatsiyalar: raqamli texnologiyalar va kreativ pedagogika	207
A.A. Yeshmuratova	Interfaol va raqamli texnologiyalar integratsiyasi: konchilik yo'nalishi ta'limida "pedagogy wheel" metodining innovatsion yondashuvi	210
M.K. Zaripova	Raqamli texnologiyalarni dars jarayonida qo'llashning afzalliklari	215
З.Р. Жаббаров	Пути эффективного использования цифровых технологий для повышения качества военной инженерной подготовки студентов	217
О.Т. Жураева	Использование современных педагогических технологий и инноваций в преподавании биологии	219
З.А. Зиявиддинова	Роль ИИ-агента в обучении русскому языку как иностранному: анализ международного и узбекского опыта	222
V.A. Кузибоев	Роль трансверсально-методической компетенции учителя в воспитании музыкального вкуса у учащихся общих средних школ на основе предмета «Музыка»	226
Н.Э. Маматмусаева, Д.Г. Абдугафурова	Объяснение химического значения производных госсипола студентам международных химико-технологических институтов с помощью цифровых технологий и творческих подходов	228
М.Ш. Насреддинова	Зарубежный опыт лингвистического туризма и возможность его использования в Узбекистане	229
М.С. Пирматова	Цифровые технологии и творческие подходы в изучении студентами поэтики художественных произведений	232
М. Рахматов, М.Н.Расулова	Формирование профессиональных компетенций с помощью инновационных технологий	234

К.А. Хайдаров, Г.А. Курбанов	Кластерный подход в развитии профессиональной компетенции преподавателей высших военных образовательных учреждений	237
Б.М. Хушвактов	Подготовка обучающегося к будущей профессиональной деятельности посредством игрового моделирования в конструктивистской педагогике	240
Э.Э.Саматова, А.В.Козленко, С.У.Рузиева, А.К.Толонова, О.А.Авазов	Автономия вузов и разработка образовательных стандартов: современные вызовы и креативные решения в Республике Киргизстан	245
М.Н. Усманова	Проектирование модельного лекционного занятия темы «Память» на технологической основе	250
Э.С. Эшов	Психология подготовки будущих учителей к инновационной деятельности на основе творческого подхода	258
N.N.Ashrapov	Oliy ta'limda innovatsiyalar orqali talabalarning raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonligini oshirishning amaliy jihatlari	260
N.R. Axmadov	Oliy ta'lim tizimida raqamli innovatsiyalar va ijodiy yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'llari	265
F.F.Ganjiyev	Oliy ta'lim tizimida innovatsiyalar orqali talabalarda tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari	267
G.B. Murodova	Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarni tahlil qilish	272
D.M.Qodirova	Talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning o'rni	274
2-SHO'BA. BUXORO: SHARAFLI O'TMISHDAN, BUYUK ISTIQBOL SARI		
Б. С. Сафаралиев, К.Ф. Абдуллаев	Народно-календарные праздники как элемент материальной и духовной культуры таджиков восточной Бухары	279
И.И. Усманходжаев, Н.Т. Хасанова	Диагностика и укрепление минарета Калян в Бухаре: сейсмостойкость и стратегии сохранения в контексте международных стандартов	282
О. Шарипова	Жаҳон цивилизациясида Бухоро фалсафа тарихи мактабининг ўрни	283
Х.Тўраев	Кўхна сарой тарихи ёзма манбаларда	291
A.T.Ochilov	Buxoro davlat universiteti va Rossiya davlat ermitaj muzeyi hamkorlik yo'lida yoxud muzey xodimlarining Buxoro tarixiga doir tadqiqotlari	294
С. Раупов	Бухоро амирлигида махаллий ўзини-ўзи бошқариш органлари	299
К. Р. Рахимов	Бухоро – илмлар академияси ёхуд чинорлар саҳрода ўсмайди	302
N. G. Dilova	Buxoro – ilm-fan va madaniyatning jahonshumul markazi	309
T. I. Rajabov	Buxoro musiqa folklorining umumiy musiqa ta'limi tizimidagi o'rni va jamoa bo'lib kuylashga o'rgatishning o'ziga xos jihatlari	312
B. I. Mustafayev	“Buxoro shashmaqomi” yosh avlodni ma'naviy- ma'rifiy rivojlantirishda muhim omil sifatida	314
L. X. Xaydarova	Buxoro yoshlarining intellektual va kreativ salohiyati: kelajakni bunyod etishdagi o'rinlari	317
A.S.Avazov, O.M.Salimov	O'zbekiston arxitektura yodgorliklarining kadastr hujjatlari yaratish muammolari va usullari	320
R. A. Axtamov, B.R. Axtamov, N.B. Rustamov	Buxoro davlat universiteti geliotexnika maktabining qisqacha tarixi	323
F.Temirov	Akademik Sadridin Ayniyning Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) davridagi ilmiy-ijodiy faoliyati	328
B.B.Boltayev	Buxoro davlat universiteti o'tmishini tarixga muhrlagan muzey	331
D.T.Ismatova	Buxoro iqtisodiy transformatsiyasi: meros, modernizatsiya, barqarorlik	333
X.R.Nafiddinova.	Qonunchilikda milliy madaniy markazlar faoliyatiga ahamiyat	336
F.X. Utayeva	Buxoro zardo'zlik fabrikasi tarixi	337
А.Абдукадиров, М.Абдукадыров	Исторический контекст: бухарский восточный рубеж и российская экономическая экспансия	341